



TASHQI MUHIT OMILLARI TA'SIRIDA AUTOIMMUN KASALLIKLARINING RIVOJLANISHI

Juraqulova R.R.

*Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti, Davolash ishi yo'nalishi,
210-guruh, ToshDavTU*


*Ilmiy rahbar: assistent o'qituvchi **Ochilov S.I.***

Allergologiya, klinik immunologiya, mikrobiologiya kafedrası, ToshDavTU

Dolzarliligi: Autoimmun kasalliklar immun tizimning o'z hujayra va to'qimalariga nisbatan nazorati buzilishi bilan kechadigan murakkab jarayon hisoblanadi. Ularning kelib chiqishida nafaqat genetik moyillik, balki tashqi muhit omillari ham muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda bu kasalliklarning ko'payib borayotgani urbanizatsiya, ekologik muhitning yomonlashuvi uzoq davom etuvchi charchoq va stress bilan bog'liq deb qaralmoqda. Shu bilan birga, tashqi omillar immun tizim faoliyatiga bevosita ta'sir qilib, immun tolerantlikning pasayishiga, yallig'lanish mediatorlarining ortishiga hamda hujayra darajasidagi regulyatsiya jarayonlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, bir nechta omil birgalikda ta'sir qilganda xavf darajasi yanada ortadi.

Maqsadi: Tadqiqotning asosiy maqsadi tashqi muhit omillarining ya'ni ishlab chiqarishdagi kimyoviy zaharli moddalar, har xil infeksiyon kasalliklarining autoimmun kasalliklar rivojlanishidagi o'rnini aniqlash va ularning immun tizimga qanday mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatishini tahlil qilishdan iborat. Bundan tashqari, turli omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida kasallik rivojlanish ehtimoli qanday oshishini baholash ham ko'zda tutilgan.

Materiallar va metodlar: Autoimmun kasalliklar rivojlanishida tashqi muhit omillarining rolini o'rganish uchun ilmiy manbalar tahlil qilindi. Buning uchun so'nggi yillarda chop etilgan mahalliy va xorijiy adabiyotlar, epidemiologik kuzatuvlar hamda klinik va eksperimental tadqiqot natijalari o'rganildi. Ko'rib chiqilgan ma'lumotlar asosida, autoimmun kasalliklar ko'pincha birgina sabab bilan emas, balki bir nechta omillarning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga kelishi aniqlandi. Ayniqsa tashqi muhit omillari va genetik moyillik o'zaro bog'liq holda kasallik rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ma'lumotlar bizga asosiy e'tiborni atrof-muhit ifloslanishiga qaratish muhimligini ko'rsatadi. Chunki, havodagi mayda zarrachalar (PM2.5), og'ir metallar va ishlab chiqarishdagi kimyoviy moddalarning immun tizimga salbiy ta'siri judayam yuqori hisoblanadi. Ularning organizmda oksidlovchi stressni kuchaytirishi, erkin radikallar miqdorini oshirishi va immun hujayralar muvozanatini buzishi aniqlangan. Shuningdek, infeksiyon omillar ham muhim o'rin tutishi aniqlangan. Viruslar immun tizimni chalg'itib, organizm o'z to'qimalarini begona sifatida qabul qiladigan holatga olib kelishi mumkin. Bu jarayon molekulyar mimikriya deb ataladi. Ayniqsa Epshteyn-Barr virusi va SARS-CoV-2 bilan bog'liq holatlar ko'plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Ichak mikrobiotasi ham





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

immun tizim barqarorligida muhim ahamiyatga ega. Uning buzilishi ya'ni disbioz-ichak devorining o'tkazuvchanligini oshiradi va organizmda yallig'lanish jarayonlarini kuchaytiradi. Bu esa immun tizimning noto'g'ri faollashishiga olib kelishi mumkin. Biroq, so'nggi bosqichda gen ekspressiyasi bilan bog'liq o'zgarishlar ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Tashqi omillar DNK tuzilmasini emas, balki uning ishlash mexanizmini o'zgartirishi mumkinligi aniqlandi. Masalan, bu jarayon metillanish, giston o'zgarishlari va mikro-RNKlar orqali amalga oshadi.

Natijalar: Autoimmun kasalliklar murakkab jarayon bo'lib, ularning paydo bo'lishida tashqi muhit omillari muhim o'rin tutadi. Atrof-muhit, infeksiyalar va stress immun tizim muvozanatini buzishi mumkin. Shu sababli bunday kasalliklarni o'rganishda va oldini olishda barcha omillarni birgalikda hisobga olish kerak. Bu yondashuv profilaktika va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda foydali hisoblanadi.

Xulosa: Autoimmun kasalliklar murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, ularning rivojlanishida ayniqsa tashqi muhit omillari muhim katta o'rinlarni egallaydi. Masalan, ekologik muhit, infeksiyalar va stress kabi omillar immun tizim muvozanatini buzgan holda, kasallik rivojlanishiga sharoit yaratib beradi. Shu sababli autoimmun kasalliklarni o'rganish va ularning oldini olishda tashqi omillarni alohida emas, balki birgalikda baholash muhim hisoblanadi. Bu yondashuv profilaktika choralarini kuchaytirishga va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga katta urg'uni qaratishga ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Belkaid Y., Hand T. Role of the microbiota in immunity. Cell, 2014.
2. Bjernevik K. va boshq. Epstein-Barr virus and multiple sclerosis. Science, 2022.
3. Karimov Sh.R. Atrof-muhit va immun salomatlik. Toshkent, 2022.
4. Murphy K. Janeway's Immunobiology, 9th ed., 2017.
5. Rahimov U.A. Ekologik omillar va kasalliklar profilaktikasi. Samarqand, 2021.
6. Song H. va boshq. Stress related disorders and autoimmune disease. JAMA, 2018.
7. Смирнов В.Г. Клиническая иммунопатология. Москва, 2020.
8. Смирнов В.Г. Клиническая иммунопатология. Москва, 2020.
9. Wang L. Gut microbiota and autoimmune disorders. Frontiers in Immunology, 2022.

